



UDK:1.124.5

Ravshonbek SAUROV,
Toshkent xalqaro universiteti dotsenti v.b., DSc
Sabxon YULDASHOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti
Dots., Q.M.Olloyorov taqrizi asosida

ILK O'RTA ASR SHARQ TAFAKKURIDA IJTIMOIIY-AXLOQIIY QARASHLAR: ILMIY VA FALSAFIY TAHLIL
Annotatsiya

Maqolada ilk o'rta asr falsafiy tafakkurida ijtimoiy, axloqiy va siyosiy g'oyalar rivoji, Sharq olimlarining hissasi, axloqiy fazilatlar va adolat tushunchasi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ilm-fan va diniy ta'limotlarning uzviy bog'lanishi va inson tarbiyasidagi roli ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ideal, komil inson, Sharq falsafasi, axloq, ma'naviyat.

СОЦИАЛЬНО-МОРАЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ В РАННЕСРЕДНЕВЕКОВОЙ ВОСТОЧНОЙ МЫСЛИ: НАУЧНЫЙ И ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ
Аннотация

В статье анализируется развитие социальных, этических и политических идей в философской мысли раннего средневековья, вклад восточных учёных, понятие моральных добродетелей и справедливости. Также рассматривается связь науки и религиозного учения и их роль в воспитании человека.

Ключевые слова: Социальный идеал, совершенный человек, восточная философия, мораль, духовность.

SOCIAL-MORAL VIEWS IN EARLY MEDIEVAL EASTERN THOUGHT: SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS
Annotation

The article analyzes the development of social, ethical, and political ideas in early medieval philosophical thought, the contribution of Eastern scholars, the concept of moral virtues and justice. It also examines the connection between science and religious teachings and their role in human education.

Key words: Social ideal, perfect human being, Eastern philosophy, morality, spirituality.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning barqaror rivoji, ijtimoiy adolat va ma'naviy barkamollik masalalari falsafiy tafakkurning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonda tarixiy-falsafiy merosga murojaat qilish, xususan, Movarounnahr hududida X–XII asrlarda yashab ijod qilgan mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarini tahlil etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur davr allomalari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy ideallik va komil inson haqidagi g'oyalar bugungi demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurish jarayonlari bilan uzviy mushtaraklikka ega.

Movarounnahr mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy konsepsiyalar Sharq uyg'onish davrining muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar axloqiy-meyoriy tamoyillar asosida izohlangan. Ushbu maqolada ilk o'rta asr sharq allomalari merosida ijtimoiy ideal va komil inson konsepsiyasining shakllanishi, mazmun-mohiyati hamda zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot uchun ahamiyati tahlil qilinadi.

Inson tarbiyasi, uning barkamolligi, mukammal jamiyat qurish kabi axloqiy va ijtimoiy muammolar nafaqat adiblar va mutakallimlarni, balki falsafa sohasida mashhur bo'lgan allomalarni ham qiziqtirgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi buyuk mutafakkirlar asarlarida ham ijtimoiy-axloqiy masalalar keng o'rin olgan.

Bu allomalarning ijtimoiy-axloqiy qarashlari ma'lum darajada mutasavviflarning axloqiy g'oyalari va ijtimoiy ideallariga yaqin edi. Abu Homid al-G'azzoliy o'zining "Munqiz min al-zalol" ("Yo'ldan adashganlarni qaytaruvchi") asarida shunday deb yozadi: "Bu allomalarning axloq ilmi haqidagi qarashlari ustida to'xtalganimizda, shuni qayd etish

lozimki, ularning fikr-mulohazalari nafs xususiyatlarini belgilash, nafsni tarbiyalash, unda yaxshi axloqiy sifatarni shakllantirish, nafsni illatlardan tozalash va uni sog'lomlashtirish haqidadir".

Faylasuflarning asarlarida antik dunyo donnishmandlarining axloqiy fikrlari va qarashlari axloq ilmining aniqlik vositalari va yo'llarini belgilash masalalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan tasavvuf g'oyalari monandligi ta'kidlanadi. Agar ularning falsafiy va ma'naviy qarashlarida haqiqatni bilish maqsad qilingan bo'lsa, axloqiy qarashlarida baxt-saodatga erishish masalasi asos qilib olingan. YA'ni, falsafiy ta'limotlarda gnoseologik muammolarga, axloqiy qarashlarda aksiologik masalalarga e'tibor berilganligi qayd qilinadi.

Axloqiy tarbiya va komil inson konsepsiyasini yaratish masalalariga tasavvuf namoyandalari Attor, Rumi, al-Qushayriy, Boyazid Bistomi kabi mutafakkirlar asarlarida ham katta e'tibor berilgan. Bu masalalar mutasavvuf shoirlar Sa'diy SHeroziy, Nizomiy Ganjaviy, Hofiz SHeroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy asarlarida ham keng o'rin olgan. Ilk o'rta asrlar davrida, xususan, axloqshunos olimlar-faylasuflarning asarlari o'zlarining tarbiyaviy ahamiyati, soddaligi va ta'sirchanligi bilan keng kitobxonlar o'rtasida mashhur edi. Shunday bebaho asarlar qatoriga XI asrda yashagan amir Unsurulmaoniyy Kaykovusning "Qobusnoma" ("Nasihatnoma") kitobi kiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy va axloqiy mavzudagi asarlar o'zlarining maqsadi, janri, mazmuni va g'oyaviy yo'nalishlariga ko'ra turli oqimlar va maktablarga mansub edi. Ularning namoyandalari o'rtasida ilmiy munozaralar, fikr almashuvlar, o'zaro hamkorlik mavjud edi. Musulmon olimlari va mutafakkirlari asarlarida ko'pincha antik donishmandlar o'z oldiga qo'ygan axloqiy muammolar (inson

va uning tarbiyasi, insonni kamol toptirish uslub va vositalari, davlat va uning tashkil etilish tamoyillari, shohlik masalalari, fozil jamiyat haqidagi g'oyalari va qarashlar) ustida ishlagan bo'lsalar-da, ammo bu muammolarning qo'yilishi, ularga yondashuv, ularning talqini o'rta asr musulmon jamiyatining tarixiy shart-sharoitlari va islom dini ta'limotining talablari nuqtayi nazaridan qaraladi. Masalan, musulmon mutafakkirlarining axloqiy fazilatlariga berilgan ta'rif va talqinlarda Aflotun va Arastu axloqiy falsafasining ta'sirini ko'rish mumkin. Ayrim mualliflar Aflotun ruhida axloqiy kategoriyalar va normalar tizimida uchta fazilat — e'tidol (meyor, mo'tadillik, o'rta daraja), hikmat (bilimdonlik, donishmandlik), shijoat (mardlik, jasurlik, dovyuraklik, qahramonlik)ni ustuvor qo'rganlar. Boshqalar esa, masalan, Nasriddin Tusiy, axloqiy fazilatlarini Arastu falsafasi, shuningdek, musulmon ilohiyotshunoslari (mutakallimlar) ta'limoti ruhida talqin qilganlar. Ammo barcha musulmon allomalarining axloqiy ta'limotlarida islom dini va tasavvuf ilmiga xos xususiyatlarni ko'rish mumkin. Ularning asarlarida an'anaviy axloqiy tushunchalar va normalar bilan bir qatorda diniy-tasavvufiy fazilatlar (tavakkul, qanoat, sabr, qadri rizo, riyozat, parhez, poklanish, zuhd, ishq kabi istilohlar) talqiniga ham katta e'tibor berilgan.

Musulmon olimlarining axloqiy ta'limotlarida namoyon bo'lgan xususiyatlar, so'nggi Renessans davri mutafakkirlarining asarlarida ham o'z aksini topadi. Jumladan, Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining ikkinchi qismining "Xomida af'ol va zamima xisol xosiyatida" bo'limida tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze', rizo va ishq kabi diniy-tasavvufiy fazilatlar batafsil talqin etilgan. Shoir ushbu axloqiy fazilatlarini keng qamrovli va har tomonlama yoritishga intilgan.

Umuman olganda, musulmon mutafakkirlari o'z ta'limotlarida barcha axloqiy fazilatlarida orasida adolat tushunchasini ustun qo'rganlar. Ular adolatni insonga xos eng muhim sog'lom axloqiy sifat va kishilar o'rtasidagi munosabatlarda esa muhim axloqiy tamoyil, deb hisoblaganlar. Adolat tushunchasi barcha axloqiy tushunchalar va ijtimoiy fazilatlarini o'zida mujassam etadi: unda insoniylik sifatleri (rahmdillik, olijanoblik, halimlik, muloyimlik, insofilik, tavoze va boshqalar), huquqiy va siyosiy tamoyillar (to'g'rilik, haqqoniylik, davlat boshqaruvida tartib-intizom, qonuniylik, inson huquqi, o'zaro munosabatlarda adolatlilik mezoniga amal qilish kabi fazilatlar) bilan uzviy ravishda bog'liq tarzda to'liq etiladi.

Axloq-odob muammolarini o'rganish va talqin qilishga kalom ilmida ham katta e'tibor bilan qaraganlar. Islom dinida ruh va badan tarbiyasi, ular o'rtasida mutanosiblikni shakllantirish asosiy masalalardan biri hisoblangan. Badanni kasalliklardan saqlash, uni sog'lomlashtirish tibbiyot ilmi sohasiga, ruhni sog'lomlashtirish, uni xastalikdan saqlash esa axloq ilmi sohasiga taalluqli ekanligi ko'zda tutiladi.

Axloqning manbai Qur'oni Karimda Alloh tamonidan nozil etilgan farmonlariga amal qilish, Payg'ambar hazrati Muhammad (s.a.v.)ning yashash tarziga tayanishdan iboratdir. Islom dinida musulmonning kundalik turmushida, o'zaro munosabatlarida qanday qonun-qoidalarga amal qilishi, nimalardan o'zini tiyishi lozimligi haqida keng ko'lamda fikr-mulohazalar yuritiladi. Bularning hammasi muayyan axloqiy fazilatlar va tushunchalarda o'z ifodasini topgan, ya'ni islom dinidagi ahloq boshqa falsafiy va axloqiy ta'limotlardagi muammolarni ham o'z ichiga olgan, ammo ular diniy aqidalar (Qur'oni Karim, hadislar, buyuk zotlarning hikmatlari) ruhida sharhlanadi. Axloqli odam bu dunyoda ham, oxiratda ham baxtga erishishi mumkinligi qayd qilinadi. Bunday saodatga erishish uchun inson o'z zimmasiga yuklangan besh axloqiy vazifalarni (mukallaf majburiyatlarni) bajarishi lozimligi talab qilinadi: Alloh va Payg'ambar oldidagi vazifalar, ya'ni shariat

qonun-qoidalariga amal qilish, Yaratuvchi oldidagi bandalik vazifalarini bajarish; insonning o'zligini anglash, qilgan ishlarini vijdon ila o'lchash, o'zining insoniylik burchini anglashi; oila va yaqin urug'-qarindoshlari oldidagi vazifalar, ya'ni ota-onalari oldidagi farzandlik burchini anglash, oilasi va bolalari oldidagi otalik mas'uliyatini bilish, vatan va millat oldidagi vazifalarni anglash va ularni bajarish, ya'ni o'zi yashagan jamoa va mamlakatning xavfsizligi, osoyishtaligi va farovonligi yo'lida xizmat qilish, vatanga va millatga sodiq bo'lish burchini anglash, butun insoniyat oldidagi vazifalarni anglash, ya'ni har bir musulmon kishi o'zining insoniyat bilan bog'liq ekanligini unutmasligi, insoniyatning bir qismi ekanligini his qilishi lozim. Axloq ilmi mana shu fazilatlarini bilish va ularni amalda joriy etishga qaratilgandir.

Ko'rinadiki, islomning axloqiy ilmi, xuddi nemis faylasufi Immanuel Kantning axloqiy ta'limotiga o'xshash, mukallaf (imperativlar, qat'iy axloqiy talablar, majburiyatlar)ga asoslanadi. Islom ta'limotida ham axloqiy kategoriyalar va meyorlar mutlaq axloqiy qonunni, uning daxlsizligini asos qiladi. Axloqiy majburiyatlarning eng muhim va belgilovchi xususiyatlaridan biri vijdonning shartsiz va mutlaq hukmiga bo'ysunishdan iboratdir. Vijdonning hukmiga inson tashqaridan majbur etuvchi sabablar yoki o'zining g'arazgo'ylik manfaatlari (foydalanish yoki zarardan saqlanish) tufayli bo'ysunmaydi, balki o'z xohishi va iroda erkinligi asosida axloqiy qonunning mutloqligini tan oladi. Shuning uchun axloq sohibi axloqiy qonunga (mutlaq imperativ talabga) biror tashqi sabablar (qo'rquv yoki foydalanish ko'zlash) tufayli emas, balki vijdon talabi bilan bo'ysunadi.

Shunday qilib, musulmon Sharq mamlakatlarining ilk Renessansi davridagi ijtimoiy-falsafiy tafakkurida axloq ilmi turli g'oyaviy oqimlar va tizimlarda vujudga kelgan edi. Ularning ichida ba'zilar, masalan, islomiy axloq tizimlari bevosita Qur'oni Karim va Hadisi shariflarga asoslangan holda shakllangan. Bu xil diniy ta'limotlarda islomning ijtimoiy-axloqiy g'oyalari va aqidalari sharhlanadi, uning iqtisodiy va huquqiy asoslarini himoya qilishga e'tibor qaratilgan. Tasavvuf ilmi, peripatetik falsafa va hurfikirlik falsafiy she'riyat namoyandalari tomonidan ham turli axloqiy tizimlar va maktablar yaratilgan. Ularda yuksak insoniy sifatlarini shakllantirish, komil insonni yetishtirish, jamiyatni sog'lomlashtirish, insonni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirish masalalari muhim ahamiyat kasb etgan. Bu xil yo'nalishdagi asarlarda ijobiy axloqiy fazilatlarini targ'ib qilish bilan bir qatorda, jamiyatda mavjud axloqiy va ijtimoiy illatlar, kamchiliklar keskin tanqid qilinadi. Xususan, hukmdor doiralarning illatlari fosh etiladi va tanqid qilinadi, jaholat va nodonlik hukm surgan jamoaga muqobil holda fazilatli jamiyat (ideal jamiyat) odamlari turmush tarzi, yashash tamoyillari va axloqiy fazilatlarini tasvirlanadi, fuqarolarda yuksak axloqiy fazilatlarini yetishtirishga katta e'tibor beriladi.

Sharq mutafakkirlari axloq ilmiga amaliy donishmandlik sifati bilan qaraydilar. Ularning fikricha, axloq odamlarni fazilatlariga, yaxshilikka chorlovchi, yomonlikdan, razolatdan qaytaruvchi ilmdir. Axloq ilmi kishilarga yaxshilik va yomonlik haqida bilim beradi, ularni yaxshi fazilatlarini kasb etishga (ixtisob) va illatlardan (razolat) o'zlarini saqlashga, tiyishga (ijtinob) o'rgatish san'atidir. XVII asrda yashagan turk mutafakkiri Kotib Chelabiy axloqni amaliy donishmandlik (hikmati amaliya) deb hisoblagan edi. Allomaning fikricha, axloq fazilatlar va ularga erishish usul va vositalarini bilish, shuningdek, razolatlar va ulardan saqlanish, uzoqlashish (ijtinob) haqidagi fandir.

Musulmon tafakkurida axloqiy falsafaga ma'naviy tibbiyot ilmi sifatida qarash an'anasi shakllangan. Sharq mutafakkirlari tabib bilan faylasufning vazifasini bir deb qaraydilar, har ikkalasining ham o'rganish obyekti insondir. Tabibning vazifasi insonning vujudidagi, tanidagi xastalikni davolash va uni sog'lomlashtirishdan iboratdir. Faylasufning

vazifasi esa inson ruhidagi xastalikni (illatlarni) davolash, inson va jamiyat ruhini ustozlari hisoblanadi. Uning vazifasi o'z fuqarolarida yuksak ma'naviy xislatlarni tarbiyalash, shakllantirish orqali jamiyatni ruhan sog'lomlashtirishdan iboratdir. Bu maqsadga hukmdor davlat boshqaruv san'atini yaxshi bilishi orqali amalga oshadi. Buning uchun hukmdor kishilardagi nafs xastaliklarini (ijtimoiy va axloqiy illatlarni) bilishi, ularni keltirib chiqaradigan sabablari va bu sabablarni bartaraf etish usul hamda yo'llarini aniq bilmog'i kerak. Shu nuqtai nazardan har bir san'atning vazifalari aniq belgilangan: tabib vujud xastaligi bilan bog'liq barcha sabablarni va ularni davolash vositalarini bilmog'i kerak, hukmdor esa insoniy va jamiyat hayotidagi xastaliklar illatlarning, ularning sabablarini va bartaraf etish vositalarini bilmog'i darkor. Temirchi, duradgor va boshqa kasb sohiblari ham o'z san'atini mukammal bilishlari zarurligi ta'kidlanadi. Bu masalada Sharq

mutafakkirlarining fikrlari qadimgi yunon faylasufi Aflotunning qarashlariga monand keladi: har bir san'atda o'z ishini mukammal bilish va undan foydalanishning amaliy uslublarini egallash talab qilinadi.

Xulosa. Ilk o'rta asr falsafiy tafakkuri Sharq sivilizatsiyalarida shakllanib, ilm-fan, axloq va siyosiy g'oyalarni diniy va ijtimoiy ta'limotlar bilan uyg'unlashtirdi. X–XII asr Movarounnahr allomalari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy ideal va komil inson haqidagi g'oyalar chuqur falsafiy mazmun va boy ma'naviy salohiyatga ega. Mazkur qarashlarda jamiyat taraqqiyoti shaxsning axloqiy va ma'naviy kamoloti bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi.

Umuman olganda, ilk o'rta asr falsafiy tafakkuri inson, jamiyat va davlat masalalarini o'rganish orqali Sharq madaniyati va ilmiy merosining boy va uzviy rivojlanishini namoyon qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Газзали. Избавляющий от заблуждений («Мунқиз мин аз-залол»). — Из истории философии народов Средней Азии и Ирана, Т. 1980, с. 223.
2. Hilmi Ziya Ülken. Islom falsafasi tarixi. Jild 1. Ankara, 1954. 81–82-bet.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. — T.: Xalq merosi, 1993. — B. 159.
4. Кодиров М. Марказий Осиё, Якин ва урта шарқнинг фалсафий тафаккури. Уқув кулланма. Т.2009. 4-б